

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

XORAZM VOHASINING O'RTA ASR SHAHARLARI: URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA TARIXIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Munira Ilxomovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, o'qituvchi, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: mirzayeva080291@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-0475-036X>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Xorazm vohasining o'rta asr shaharlari urbanizatsiya jarayonlari, ularning vujudga kelishi, rejalashtirilishi va me'moriy xususiyatlari tarixiy manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Vohadagi ilk feodal shaharlarining shakllanish bosqichlari, ularning iqtisodiy-siyosiy vazifalari, shuningdek, Buyuk Ipak yo'lidagi o'rni yoritiladi. Maqolada Qiyot, Urganch (Gurganch), Xazorasp, Mizdaxon, Xiva kabi yirik shahar markazlarining taraqqiyot tarixi, shaharsozlik madaniyati va me'moriy yodgorliklari haqidagi ilmiy ma'lumotlar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, o'rta asr shaharlari, urbanizatsiya, shaharsozlik, Ipak yo'li, arxeologiya, Ko'hna Urganch, Xiva, Hazorasp.

СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ГОРОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА: ПРОЦЕССЫ УРБАНИЗАЦИИ И ИХ ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Мирзаева Мунира Ильхомовна

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, преподаватель, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье на основе исторических источников и археологических исследований анализируются процессы урбанизации средневековых городов Хорезмского оазиса, их возникновение, планирование и архитектурные особенности. Освещены этапы формирования первых феодальных городов оазиса, их экономико-политические функции, а также их место на Великом Шёлковом пути. В статье обобщена научная информация об истории развития, культуре градостроительства и архитектурных памятниках таких крупных урбанизированных центров, как Киёт, Ургенч (Гургенч), Хазарасп, Миздахан, Хива.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, средневековые города, урбанизация, градостроительство, Шёлковый путь, археология, Старый Ургенч, Хива, Хазарасп.

MEDIEVAL CITIES OF THE KHOREZM OASIS: URBANIZATION PROCESSES AND HISTORICAL-GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS

Mirzayeva Munira Ilxomovna

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Lecturer, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the urbanization processes of the medieval cities of the Khorezm oasis, their emergence, planning, and architectural features based on historical sources and archaeological research. The stages of formation of the first feudal cities in the oasis, their economic and political functions, as well as their position on the Great Silk Road are highlighted. The article synthesizes scientific data on the history of development, urban planning culture, and architectural monuments of major urban centers such as Qiyot, Urgench (Gurgench), Khazorasp, Mizdakhon, and Khiva.

Keywords: Khorezm oasis, medieval cities, urbanization, urban planning, Silk Road, archaeology, Old Urgench, Khiva, Hazorasp.

Kirish. Xorazm vohasi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib, uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan ushbu hudud qadimdan sug'oriladigan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlangan markazi sifatida tanilgan. O'rta asrlarda Xorazm vohasi Sharq va G'arbni

bog'lovchi Buyuk Ipak yo'lida muhim strategik va iqtisodiy o'rinni egallagan. Vohada o'rta asr shaharlarining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va ularning me'moriy xususiyatlari tarixshunoslikda uzoq vaqtdan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Arxeologik qazishmalar va yozma manbalar Xorazm shaharlarining nafaqat mahalliy, balki xalqaro ahamiyatga ega markazlar sifatida shakllanganligini ko'rsatadi. Biroq ushbu shaharlarning urbanizatsiya jarayonlari, rejalashtirilishi va me'moriy xususiyatlari hanuzgacha yetarli darajada o'rganilmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'rta asr shahar sivilizatsiyasining mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash zamonaviy tarix fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Xorazm shaharlari urbanizatsiyasini kompleks o'rganish nafaqat mintaq, balki butun Markaziy Osiyo shaharlar tarixi taraqqiyotining umumiy konsepsiyasini boyitishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi Xorazm vohasi o'rta asr shaharlarining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, shaharsozlik xususiyatlari hamda ularning tarixiy-geografik ahamiyatini kompleks tarzda tahlil qilishdan iborat. Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar qo'yildi: voha shaharlarining shakllanish bosqichlarini aniqlashtirish; shaharlarning geografik joylashuvi va shaharsozlik xususiyatlarini tahlil qilish; yirik shahar markazlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy ahamiyatini yoritish.

2. MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqotda asosiy manbalar sifatida quyidagi materiallardan foydalanildi: arab-fors geografik va tarixchilarining yozma manbalari (at-Tabariy, al-Maqdisiy, Ibn Rusta, al-Istaxriy, Ibn Fadlan, Mahmud Qoshg'ariy hamda «**Hudud al-olam**» asari muallifining ma'lumotlari); Abu Rayhon Beruniyning asarlari; S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan XX asrda olib borilgan qazishmalar natijalari; shuningdek, zamonaviy arxeologik va tarixiy tadqiqotlar.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, arxeologik materiallarni tizimlashtirish, kartografik tahlil, yozma manbalarni tanqidiy o'rganish, turli davrlarga oid ma'lumotlarni qiyoslash va sintez qilish metodlaridan foydalanildi. Tarixiy manbalar hamda arxeologik dalillarni kompleks ravishda qo'llash ilmiy xulosalarning ishonchligini ta'minladi.

Tadqiqotning xronologik doirasi milodiy III–XIV asrlarni, ya'ni Afrig'iylar sulolasi davridan Mo'g'ullar hukmronligining oxirigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Geografik doirasi esa Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm vohasini, xususan, uning o'ng va chap qirg'oqlarida joylashgan shahar markazlarini o'z ichiga oladi.

3. NATIJALAR

Xorazm vohasida shahar hayotining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon natijasidir. Afrig'iylar sulolasi davrida (milodiy 305–995-yillar) Xorazmda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Sobiq feodal istehkomlari yaqinida shaharlar va shahar-qal'alar paydo bo'la boshladi. Afrig'iylar davlatining poytaxti Kat (hozirgi Beruniy) shahri edi. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, VII–XII asrlarda shaharlar yangilarini qurish hisobiga emas, balki eskilarini tiklash hisobiga rivojlangan. XI–XII asrlarda voha sarhadlarida qal'alar jadal qurilganligi, yangi shaharlar bunyod etilganligi arxeologik jihatdan qayd etilgan bo'lsa-da, bu yangi shaharlarning maydoni nisbatan kichik bo'lgan. VIII asr arab manbalarida Xorazmda uchta katta shahar — Kat, Hazorasp va Urganch borligi qayd etilgan. At-Tabariy VIII asr boshlarida Xorazmda 3 ta shahar bo'lganligini, al-Maqdisiy esa X asrda 32 ta shahar mavjudligini xabar qiladi. Tadqiqotlar bu o'sishning yangi shaharlar paydo bo'lishi emas, balki avval tashlab ketilgan shahar aholi punktlarining qayta tiklanishi va aholi sonining ortishi bilan bog'liqligini isbotlaydi [1; 4].

Xorazm vohasi shaharlari Amudaryo deltasida, uning irmoqlari bo'yida joylashgan. Mintaqaning jismoniy-geografik xususiyati ko'p sonli delta oqimlari, ko'llar va sug'oriladigan dehqonchilik uchun qulay allyuvial tuproq qoplamining mavjudligi bilan belgilanadi. Amudaryo o'zanining tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarishi yangi hududlarda shahar markazlarining rivojlanishiga olib kelgan [2]. Vohadagi yirik shaharlar qatoriga Qiyot, Urganch (Gurganch), Hazorasp va Mizdaxon kiradi. Bu shaharlar nafaqat ma'muriy markazlar, balki muhim savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida ham xizmat qilgan. Shaharlarning Amudaryo bo'yida joylashganligi ularning sug'orish tizimlari va transport aloqalari rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lgan.

Xorazm shaharlari o'ziga xos shaharsozlik xususiyatlariga ega bo'lgan. Tadqiqotchilar bir qator muhim jihatlarni ajratadilar: aniq ifodalangan hunarmandchilik dahalarining yo'qligi yoki kamligi; shahar atrofida yopiq istehkomlarning ustuvorligi; murakkab darvoza inshootlarining o'ziga xos qurilish tizimi. Bunday xususiyatlar harbiy-ma'muriy postlar yoki chegara qal'alari yaqinida paydo bo'lgan chekka shaharlarni o'rganish asosida aniqlanib, ular haqiqiy shahar markazlarining ilk taraqqiyot bosqichini aks ettiradi [3]. Xorazmning qadimiy muhandislari sug'orish inshootlari va qal'a qurilishida geometrik o'lchovlardan keng foydalanishda ulkan yutuqlarga erishganlar. Shaharlar odatda mustahkam devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular ichida shahriston (ichki shahar) va rabotlar (savdo-sotiq va karvonsaroylar) joylashgan.

Ko'hna Urganch (Gurganch) — Xorazmning eng yirik shaharlaridan biri bo'lib, u Buyuk Ipak yo'lining eng muhim o'rta asr yo'nalishlaridan birida joylashgan. Gurganch Xorazm imperiyasining poytaxti bo'lgan va XII–XIII asrlarga kelib musulmon Sharqining eng yirik shaharlaridan biriga aylangan. Shaharda masjidlar, maqbaralar va boshqa me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan bo'lib, ular XI–XVI asrlarga oid. 2005-yilda Ko'hna Urganch xarobalari YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Xiva — Xorazm vohasining eng mashhur va qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, miloddan avvalgi V asrda bunyod etilgan. Shaharning ichki qismi — Ichan Qal'a 26 gektar maydonni egallagan bo'lib, Markaziy Osiyo shahar qurilishining qadimiy an'analarga muvofiq muntazam to'rtburchak shaklda (650 × 400 metr) qurilgan. Ichan Qal'a devorlarining balandligi 10 metrga yetadi. Shahar devorlari ichida 54 ta tarixiy yodgorlik mavjud bo'lib, ular qatoriga 23 ta madrasa, 6 ta masjid, 6 ta maqbara va 1 ta karvonsaroy kiradi. 1990-yildan boshlab Ichan Qal'a YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan [4].

Hazorasp — Xorazm vohasining janubiy chegarasida joylashgan O'rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biridir.
Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Siyosat

Sopol materiallari va minorali qal'a devorlari qoldiqlari miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Hazorasp kuchli istehkom va katta bozorlarga ega muhim savdo markazi bo'lib, Amuldan Xorazmga boradigan savdo yo'lida joylashgan hamda Xorazm davlatining Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy forposti hisoblangan.

Mizdaxon — Xorazmning yirik o'rta asr shahar xarobasi bo'lib, Xo'jayli shahridan 7–8 km g'arbda joylashgan. V–VI asrlarda antik qishloq xarobasi o'rnida bunyod etilgan qasr asosida vujudga kelgan va mo'g'ullar hukmronligining oxirigacha (XIV asr) mavjud bo'lgan. Mizdaxon keyingi davrda muhim ziyoratgoh va diniy markaz sifatida ahamiyat kasb etgan.

Xorazm vohasi qadimdan xalqaro savdo va madaniy aloqalarda faol ishtirok etib kelgan. Xorazmlik savdogarlar, ayniqsa, IX–XII asrlarda butun musulmon Sharqida juda mashhur bo'lganlar. Xorazm ko'p asrlar davomida Sharq va G'arbni bog'lagan Buyuk Ipak yo'lida joylashgan hudud sifatida Eron, Xitoy, Hindiston, Arabiston, Kavkaz va shimoliy viloyatlar bilan siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqalar o'rnatgan [5]. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xorazm hududida bu davrga oid savdo markazlarining ko'pligi va ularda topilgan moddiy materiallarning xilma-xilligi savdo-sotiq aloqalarining yuqori darajada bo'lganligini tasdiqlamoqda. Shaharlarda hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik ishlab chiqarishi rivojlangan bo'lib, u asosan shahar atrofida, suv manbalari yaqinida, 3–4 km radiusda joylashgan.

Ilk o'rta asrlarda Xorazm aholisi zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan. Shahar hududlarida zardushtiylik ibodatxonalari qurilgan. Masalan, Ayoq qal'ada shunday ibodatxonalar mavjud bo'lgan. IX–XI asrlardan boshlab O'rta Osiyoda islom madaniyati keng tarqala boshladi va Xorazm shaharlarida masjid hamda madrasalar qurilishi jadallashdi [6]. Beruniyning yozishicha, arablar Xorazmda o'ziga xos aholi — alohida tilda so'zlashuvchi, bu tili yozma hujjatlarda ham qo'llanilgan kishilarga duch kelganlar. Bu Xorazm madaniyati va davlat tizimining mustaqilligini ko'rsatuvchi muhim dalil bo'lib, rasmiy hujjatlar va badiiy ijod namunalari mahalliy tilda yaratilgan.

4. MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari Xorazm vohasi shaharlarining shakllanish jarayoni bir qancha muhim xususiyatlar bilan ajralib turganligini ko'rsatadi. Birinchidan, Xorazmda urbanizatsiya jarayoni yangi shaharlar qurish emas, balki avvalgi aholi punktlarining tiklanishi va kengayishi asosida amalga oshgan. Bu holat al-Maqdisiy xabar qilgan shaharlar sonining X asrdagi keskin o'sishini yangi binolar qurilishi sifatida emas, balki avvalgi manzilgohlarning jonlanishi sifatida izohlab beradi. Ikkinchidan, Xorazm shaharlarini Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalari shaharlari bilan qiyoslaganda, sezilarli farqlar mavjud. Yirik hunarmandchilik dahalarining yo'qligi, kulolchilik ishlab chiqarishining shahar atrofiga chiqarilishi va qal'a yaqinidagi ochiq aholi punktlarining mavjudligi Xorazm shaharlarining o'ziga xos urbanistik modelini tashkil etadi [7; 8]. Bu xususiyatlar vohaning ekologik va iqtisodiy sharoitlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Uchinchidan, shaharlarning Amudaryo deltasi tizimida joylashganligi ularning barqarorligini ham, zaifligini ham belgilagan. Daryoning o'zani o'zgarishi ba'zan butun shaharlarning inqiroziga olib kelgan. Shu bois Xorazm shaharlari tarixi yangi joylarga ko'chishlar tarixi hamdir. Bu geomorfologik omil hozirda GIS va paleogeografik tahlil yordamida yanada chuqurroq o'rganilmoqda. To'rtinchidan, Ko'hna Urganch va Xiva kabi shaharlarning YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi nafaqat ularning tarixiy qiymatini, balki global miqyosdagi ilmiy va madaniy ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu shaharlar hali to'liq tadqiq etilmagan: yangi arxeologik metodlar, ayniqsa, LiDAR texnologiyasi va 3D modellashtirish yashirin qurilmalar va yer osti qatlamlarini aniqlashda yangi istiqbollar ochmoqda.

5. XULOSA. O'tkazilgan tadqiqot Xorazm vohasi o'rta asr shaharlari Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida noyob o'rin tutishini isbotlaydi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi. Xorazm vohasida shahar hayoti bir necha bosqichda shakllanib, urbanizatsiya jarayoni asosan avvalgi aholi punktlarining tiklanishi va kengayishi orqali amalga oshgan. Afrig'iyalar davrida shahar-qal'alar paydo bo'lgan bo'lsa, IX–X asrlardagi o'sish yangi qurilish emas, balki eskilarining jonlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Xorazm shaharlarining o'ziga xos shaharsozlik modeli mustahkam devorlar, murakkab darvoza inshootlari, shahriston va rabotlar tizimidan iborat bo'lgan. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining shahar atrofiga chiqarilishi va yirik hunarmandchilik dahalarining yo'qligi ushbu modelning asosiy xususiyatlaridan biridir. Xorazm shaharlarining Buyuk Ipak yo'lidagi strategik mavqei, Amudaryo bo'yidagi qulay geografik joylashuvi va rivojlangan sug'orish tizimi ularning iqtisodiy qudratining asosiy omillari bo'lgan. Ko'hna Urganch, Xiva, Hazorasp, Mizdaxon kabi shaharlar bugungi kunda ham o'zining noyob me'moriy yodgorliklari va tarixiy qatlamlari bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Kelajakdagi tadqiqotlarda zamonaviy raqamli texnologiyalar (LiDAR, GIS, 3D modellashtirish) va paleogeografik tahlil metodlarini keng qo'llash Xorazm shaharlarini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тереножкин А. И. Археологические разведки в Хорезме. – М.: Наука, 1940.
2. Palvanov H. A. Location of Ancient Right Bank Settlements of Khorezm // Current Research Journal of History. – 2022. – Vol. 3. – Iss. 12. – P. 12–17.
3. Poyanov I. A. Urban Planning Features of Archaeological Monuments from Ancient Times (the Example of Ancient Khwarezm) // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4. – Iss. 11.
4. Matyakubova Sh. Kh. Early Medieval Khorezm: Socio-Economic Development and the Evolution of Urban Life // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – Vol. 4. – Iss. 2. – P. 488–492.
5. Matnazarov T. S. The Importance of Castles in the Socio-Economic Relations of Khorezm in the Period of Afrights // Scientific Journal. – 2020. – DOI: 10.24411/2520-6990-2020-11872.
6. Allanazarov S. B. Source Studies and Historiography of the Cities of Khorezm in the IV–XV Centuries // Scientific Journal. – 2021. – DOI: 10.24411/2412-8236-2021-10502.
7. Akchakhan Fortress: Research and Results for 2022–2024 // Neliti. – 2025.
8. Kubaev Sh. Sh., Toshova Sh. P., Khatamova M. M. Traces of a Lost Book Culture: A New Interpretation of the Architectural Mysteries of Khwarezm // Stratum Plus. – 2025. – No. 5. – P. 347–361.